



2024-yil. 3-sod

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



Bahor keldi  
seni so'roqlab...

*Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yerlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

*Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,  
O'rik gullarining eding maftuni.  
Har uyg'ongan kurtak hayot bergen kabি  
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.*

*Mana qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,  
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekindi nari.*



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev  
Nizomiddin Mahmudov  
Yorqinjon Odilov  
Jabbor Eshonqulov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
To'lqin Saydaliyev  
Barno Buranova  
Zulxumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Bahodir Jovliyev  
Salima Jumayeva  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulxayrov  
Aljon Safarov  
Madina Nuriddinova  
Latifa Xudayqulova  
Barno Kadirova  
Nargiza Mirzayeva  
Guli Shukurova  
To'maris Butunbayeva  
Ramziddin Abdusatorov  
Okila Turakulova  
Yuldush Raxmatov  
Ramziddin Abdusatorov  
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV  
Bibimaryam RAHMONOVA  
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



## MUNDARIJA

### DOLZARB MAVZU

Xamza Elliye. O'quvchilar bilimini baholashda yangi yondashuvlar tahlili..... 3

### TADQIQOT

Sanobar Ulliyeva. O'tkir Hoshimov qissalarida obraz yaratuvchi semantik birliklar.	6
Shohzoda Tursunboyeva. O'zbek adabiyotida epik syujet tadriji.	8
Sitorabonus Ataullayeva. Adabiyotda ayol xarakteri.	10
Atadjan Djumashev. Hozirgi o'zbek adabiy tiliga chet tillaridan o'zlashgan qurilish terminlari.	13
Shahodat Raxmatullayeva. Ona tili darslarida o'quvchilarni savol o'quv topshirig'i ustida ishlashga o'rgatish.	16
Dildora Nizomiddinova, Nozima Inomova, Sitora Qaimova. Farg'ona vodiysi tarixiy antropotoponimlari xususida.	18
Mahliyo Elboyeva, Yarmuxammat Madaliyev. O'zbek adabiyotini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarning ustuvor yo'nalishlari.	21
Sanjar Mavlyanov. O'zbek tili diplomatik terminlarining takomillashuvi masalalari.	23
Lola Ibragimova. Tibbiyotga oid ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv asoslari.	27
Iroda Ishonxanova. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitishda tarixiy va zamonaviy manbalarning ahamiyati.	30
Doston Abulxayirov. Teaching pragmatics in the digital age: an investigation of the effectiveness of computer-mediated communication in developing pragmatic competence.	33
Malika Matkarimova. Using electronic dictionary for reading skills.	35
Umida Muxammadiyeva. Features of historical and current state of uzbek english intercultural literary relations.	37
Ramina Shukurova. Linguocultural specifity of phraseological units in the process of teaching languages.	41
Наргиза Ходжаева. Интерактивные современные методы преподавания русского языка как иностранного.	43
Умида Улашева. Совершенствование методологии обучения иностранному языку посредством художественной литературы в начальном образовании (на примере английского языка).	45
Мунира Шодмонова. Изучение китайских афоризмов в контексте патриотического воспитания.	47
Саодат Рахматова. Актуальность формирования навыков академического письма у студентов технических вузов.	50
Сауле Турланова. Формирование мотивации самообразования у студентов в системе высшего профессионального образования.	51
Мехрибон Шамсиддинова. Анализ учебных пособий для преподавания	

O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oly attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori  
bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari  
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.  
<https://oak.uz/pages/4802>

Oftobachichek – Andijon viloyatining Oltinko'l tumaniga qarashli aholi maskanlaridan birining nomidir. Qishloq Qo'qon xonlaridan Sheralixon va Xudoyorxon hukmronligi davrida katta nufuzga ega bo'lgan tarixiy shaxs – Musulmonqulning o'g'il Abdurahmon oftobachi nomi bilan yuritilgan. Abdurahmonni Xudoyorxon oftobachi mansabiga tayinlagan, shu sababli uning ismi yoniga oftobachi so'zi qo'shib ishlatalgan. Xudoyorxon oftobachining xizmatlarini inobatga olib, unga Andijon hududidan bir necha yuz tanob yerni chek qilib ajratib bergen. Tarixiy hujjatlarda Abdurahmon oftobachining cheki shaklida ifoda etilgan bu joy davrlar o'tishi bilan qisqarishga uchrab, Oftobachichek shakliga kelib qolgan [6].

Sherali mingboshi – Qo'qon shahridagi ko'chalardan biri shu nom bilan ataladi. Turar joy Qo'qon xonligi tarixida o'chmas iz qoldirgan, katta obro'- e'tiborga sazovor bo'lgan zot – harbiy qo'mondon Sherli mingboshi nomiga aloqador. Sherli mingboshi Qo'qon xoni Xudoyorxon davrida otliq qo'shinlar qo'mondoni bo'lib, bosqinchilarga qarshi kurashda qahramonlik namunalarini ko'rsatgan. Tarixchi olim, professor R.Nabihev o'zining "Qo'qon xonligi tarixidan" ("Iz istorii Kokandskogo xanstva") asarida o'sha davrdagi tarixiy manbalar asosida Sherli mingboshi haqida ba'zi ma'lumotlarni qayd etib o'tgan. Unda yozilishicha, u keng yelkali, barvasta bo'yli kishi bo'lgan, mohir chavondoz hisoblangan. Qo'rqlasligi, pahlavonligi, shijoatkorligi bilan barchani lol qoldirgan. Dushman bilan bo'lgan janglarda 14 yeridan jarohatlangan. U general Skobelev qo'shini bilan bo'lgan jangda qahramonlarcha halok bo'lgan.

Bulardan tashqari, Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani hududida Dasturxonchi, Qozikalon, Elchi, Buvayda tumanida G'aznachi, Uchko'priq tumanida Mirishkor, Qo'qon shahrida Noibning ko'prigi, Devonbegi, Bakovul toponomimlar uchraydiki, ular shaxs ismlariga qo'shib qo'llanilgan mansab, amal nomlari bilan atalgandir. Darhaqiqat, qayd etilgan toponomislardan Dasturxonchi qishlog'i – Mahmud dasturxonchi, Noibning ko'prigi, Devonbegi, Bakovul ko'chalari – Otabelk noib, Muhammad Razzoq devonbegi, O'tab bakovul nomlari bilan yuritilgandir.

Joy nomlari orasida din arboblari nomlari asosida vujudga kelgan antropotoponimlar ham uchraydi. Bularga Qo'qon shahridagi Shayxulislom guzari, Xalifa Safo toponomimlari misol bo'la oladi. Shayxulislom – musulmon jamiyatida eng yuqori unvon, ruhoniyalar boshlig'i ma'nosini ifoda etgan. Manbalarda Qo'qon xonligida Shayxulislom lavozimini egallagan Sultonxon to'ra Ahroriy, Ma'rufxon to'ra binni Ma'murxon to'ra, Sulaymon xoja binni Yusufxon xo'ja, Eshon Boboxo'ja Konibodomiy, Zokirxoja eshon Namangoni, Xoja Kalon Jo'yboriyarning nomlari saqlanib qolgan.

Bulardan Zokirxoja eshon Namangoni guzarga o'z nomini qoldirish sharafiga tuyassar bo'lgan. Guzar avvaliga Shayxulislom Zokirxoja eshon guzari deb yuritilgan. Keyinchalik talaffuzda soddalashib, Shayxulislom guzari tarzida atalib ketgan [7].

Shahardagi Xalifa Safo mahallasining atalishiga o'z davrining yirik diniy arbobi Xalifa Safo nomi asos bo'lib xizmat qilgan. Manbalarda yozilishicha, Xalifa Safo buxorolik mashhur shayx Xalifa Husayn Buxoriyning shogirdi bo'lib, nomdor eshonlardan hisoblangan. Aholining turli qatlamlaridan ko'p sonli muridlari bo'lgan. Jome' madrasasida mudarrislik qilgan. Dorulsultanatda juda katta obro'- e'tiborga sazovor bo'lgan.

Kezi kelganda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Farg'ona vodiysi joy nomlari tizimida kishi ismi bilan chek so'zining birikuvidan tuzilgan antropotoponimlar ko'p uchraydi. Chek so'zi "xususiy yer" ma'nosi bilan toponomimlar tarkibida ishtirok etgan. Darhaqiqat, o'tmishda chek deyilganda xonning va oila a'zolarining, amaldorlar, din peshvolari kabi mashhur shaxslarning, umuman har qanday kishilarning xususiy yerlari tushunilgan. Bu xil xususiy yerlarda tashkil topgan qishloq, mahallalar keyinchalik o'sha yer egasining ismi bilan chek so'zining birikuvi orqali nomlanib ketgan. Andijon viloyatining Shahrixon tumanidagi Ahmadxo'jache, Farmonche, Boboche, Asaka tumanidagi Sariqmirzache, Yusufxalfa cheki, Usmonche, To'ramche, Bاليqchi tumanidagi Mallache, Niyoziatche, Paxtaobod tumanidagi Sottixo'jache, Oltinko'l tumanidagi Mamayusufche, Qo'rg'ontepsha tumanidagi Dehqonche, Izboskan tumanidagi Daminboyche, Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi Jumaboyche, Furqat tumanidagi Chek Sharif, Namangan viloyatining Norin tumanidagi Mahmudche, Mirlutonche, Mavlone, Ismoilche, Sherazimche, Do'stmatche, Egamberdiche, kabi qishloq nomlari shunday antropotoponimlar jumlasiga kiradi.

Antropotoponimlarning ma'lum bir guruhi istiqlol yillarida vujudga keldi. Respublikamiz shahar va tumanlaridagi mahalla, ko'cha, bog'larning ayrimlari Sharqning buyuk allomalari – Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Farg'oniy, Termizi, Zamashshariy, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror, Najmuddin Kubro, Rudakiy, Alisher Navoiy, Ali Qushchi; ona-yurt uchun jonini fido qilgan buyuk sarkardalar – Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur nomlari bilan atala boshlandi.

Xullas, antropotoponimlar – tilimizning bebafo boyligi, ko'hna tariximiz yodgorligi, moziy sadosidir. Ularni ilmiy jihatdan puxta o'rganish tilshunoslik, tarix, etnografiya fanlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

- Охунов Н. Антропотопонимика нима? – Тошкент, 1984. 6-бет.
- Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965. С. 30.

3. Горбачевич К.С. Русские географические названия. – М.-Л., 1965. С.140.
4. Охунов Н. Фарғона водийси антропоийонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997, 2-сон. 26-27- бетлар.
5. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. – Ташкент, 1973. С. 108.
6. Охунов Н. Қўрсатилган мақола, 27-28- бетлар.
7. Охунов Н. Тарих нафаси уфуриб турган сўзлар // Соғлом авлод учун, 2002, 11- сон. 33- бет.
8. Nizomiddinova, D., & Vasilakhon, I. (2020, June). ABOUT COMBINED TOPOONYMS IN THE FORM " OT+ VERB" AND" VERB+ OT". In ArchiveofConferences (Vol. 1, No. 1, pp. 128-129).
9. Nosirovna, N. D. (2022). ABOUT SOME ANTHROPOOYKONYMS OF FERGANA VALLEY. GalaxyInternationalInterdisciplinaryResearchJournal, 10(12), 1124-1131.
10. Nosirovna, N. D. (2022). Regarding the Study of the Simple Names of the Fergana Region According to the Morphological Structure. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 1(5), 82-85.
11. Nosirovna, N. D. (2022). Anthropotponyms are a priceless treasure of our language, a monument of our history. Emergent: JournalofEducationalDiscoveriesandLifelongLearning (EJEDL), 3(02), 16-19.
12. Nizomiddinova, D., & Vasilakhon, I. (2020, June). ABOUT COMBINED TOPOONYMS IN THE FORM " OT+ VERB" AND" VERB+ OT". In ArchiveofConferences (Vol. 1, No. 1, pp. 128-129).

Mahliyo ELBOYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti  
O'zbek adabiyoti ta'limi kafedrasini o'qituvchisi;

Yarmuxammat MADALIYEV,

Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti dotsenti

## O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Annotatsiya:** ushu maqola ta'lim tizimida, o'zbek adabiyotini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari va bugungi ta'lim tizimidagi ahamiyati va afzalliklari haqida fikr yuritilgan. Bugungi kunda o'zbek adabiyotini o'qitishda, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, erkin bilim olishga, olgan bilimlarini boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Shu sababdan, ta'lim tizimimizga zamonaviy yondashuvlarning kirib kelishi yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlarni asoslashga sabab bo'la oladi. Bunday yondashuvlarni ta'lim tizimiga xususan, o'zbek adabiyotini o'qitishda qo'llash va shular asosida dars jarayonlarini tashkillashtirish o'quvchining badiiy asarni tushunishi, tasavvur qilishi, tahlil qilishi va o'z muvaffaqiyatidan lazzatlanish hissini tuydirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** yondashuv, kreativ yondashuv, kognitiv yondashuv, texnologik yondashuv, tur, modulli yondashuv.

**Аннотация:** в данной статье размышляются особенности современных подходов к преподаванию узбекской литературы в системе образования, а также важность и преимущества современной образовательной системы. Сегодня при преподавании узбекской литературы особое внимание уделяется самостоятельному мышлению учащихся, самостоятельному обучению, связи полученных знаний с другими предметами. Поэтому внедрение современных подходов в нашу систему образования может стать поводом для обоснования вышеизложенных моментов. Применение подобных подходов в системе образования, особенно в преподавании узбекской литературы, и организация на их основе процессов урока способствуют пониманию, воображению, анализу художественного произведения учеником, ощущению ощущения наслаждения своим успехом.

**Ключевые слова:** подход, творческий подход, когнитивный подход, технологический тип подхода, модульный подход

**Annotation:** this article reflects on the specific features of modern approaches to teaching Uzbek literature in the educational system and the importance and advantages of today's educational system. Today, in the teaching of Uzbek literature, special attention is being paid to students' independent thinking, free learning, and teaching them to connect their acquired knowledge with other subjects. Therefore, the introduction of modern approaches to our education system can be the reason for justifying the above-mentioned points. Applying such approaches to the educational system, especially in the teaching of Uzbek literature, and organizing lesson processes based on them, serves to make the student understand, imagine, analyze the work of art, and feel the feeling of enjoying his success.

**Key words:** approach, creative approach, cognitive approach, technological approach type, modular approach

**Kirish.** “Ta’lim-tarbiya bir joyda to’xtab qolmaydi, u doimiy takomillashuv jarayonida. Shunday ekan, o’sib kelayotgan yosh avlodga bilim berishning yangi usullarini ishlab chiqib, o’quv jarayoniga tavsiya etish dolzarb masalalardan biridir”.[2,16] Bugungi kunda o’quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an'anaviy usullardan farqli o’laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o’zlashtirish va ta’lim jarayonida qo’llash zamon talabidir.

**Asosiy qism.** Bugungi kunga qadar bir qancha olim va olimalarimiz tomonidan ta’limning turli xil yondashuvlari o’rganilib amaliyatga tatbiq qilib kelinmoqda. Bular: K.Mavlonova, S.Qambarova, Sh.Xolmatov, Sh.Xasanova, I.Shamsiyeva, N.Abdullayeva, A.Karimov, X.Yulbarsova tadqiqotlarda va D.Tojiboyeva ilmiy maqolalarida ta’limdagagi eng faol va samarali yondashuvlar haqida to’xtalib o’tilgan. Yuqoridagi sanab o’tgan olim va olimalarimiz tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlarda ta’limdagagi yondashuvlarni turli fan sohalarida qo’llanilishi yoritib berilgan.

Bugungi ta’lim tizimimizda ta’lim jarayonlarini tashkil etishning, xususan, o’zbek adabiyotini o’qitishda eng ommaviy va samarali yondashuvlar quyidagilar deb belgiladik:

Ko’rgazmali-an'anaviy yondashuv – yangi materiallarning hammasi o’qituvchi tomonidan og’zaki bayon etiladi. O’qituvchi o’quvchilarni olgan bilimlarini xotirada saqlab qolishga va mustahkamlashga undaydi. Bu yondashuv asosan dars o’tishning an'anaviy shakllarida qo’llaniladi. Darsning markazida o’qituvchi turadi. Ko’rgazmalilik o’zbek adabiyotini o’qitishda, o’quvchiga asar haqida tasavvur hosil qilishi, qahramonlar va joylarning tasvirlarini berishi va asar tahlili uchun yaxshigina tasavvur uyg’otishi va tushuncha hosil qilishiga yo’naltiradi. Shundagina, o’quvchi badiiy asarni tushuna boshlaydi, uning mohiyatini anglashga harakat qiladi.

Texnologik yondashuv – o’quv jarayonida o’quvchilarning darsda faolligini ta’minlash, qo’ylgan maqsadga birlgilikda harakat qilish orgali erishish, ular o’z muvaffaqiyatlarini o’zlarining faoliigi evaziga ta’minlashadi va buni o’zları ham his qilishadi. O’quvchiga o’zining mehnatidan lazzatlanish hissini tuydirishni o’rgatish lozim, sababiki, bolada motivatsiya uyg’onadi, oldiga maqsad qo’ya oladi va erkin fikrlay oladi.

Tanqidiy-ijodiy yondashuv – bolalarning muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirish, ularni yangi bilimlarni mustaqil o’zlashtirishi, tashabbus ko’rsatishlariga e’tibor qaratiladi. Ijodiy fikrlashga yo’naltiriladi. O’zbek adabiyotini o’qitish har bir sinf doirasida o’rganilayotgan mavzuning mazmuniga qarab bolalarda bilim, ko’nikma va malakalarni mustahkamlashga, takomillashtirishga xizmat qiladi.

Modulli yondashuv – o’quv materialining o’quvchi bilim va ko’nikmalarini nazorat qiluvchi mantiqan

tugallangan birlik. Bunda barcha dasturlar ketma-ketlikda mazmunan hamohanglikda berib boriladi. Olima R.Safarovaning ta’kidlashicha, modulli ta’lim bir qator g’oyalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Ular: o’quvchilarning o’zları bilimlarni o’zlashtirishlari, o’rganishlari, o’qituvchi esa ularning o’quv faoliyatini boshqarishi lozim. Bu jarayonda o’qituvchi o’quvchilarni o’quv faoliyatiga yo’naltirishi, ularda mazkur faoliyatga nisbatan moyillikni hosil qilishi, ularning o’quv faoliyatini tashkil etishi, muvofiglashtirishi va maslahatlar berishi kerak.[4;4] O’zbek adabiyotida modulli yondashuv – adabiyot darslarida o’rganilayotgan badiiy asarlarni katta-kichik modular asosida loyihalashtirishni nazarda tutadi. Ajratilgan har bir modul bo’yicha uning o’zigagina xos bo’lgan faoliyat mazmuni va ta’sir doirasi mavjud bo’ladi. Olima R.Safarovaning ta’kidlashicha, modulli ta’lim bir qator g’oyalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Ular: o’quvchilarning o’zları bilimlarni o’zlashtirishlari, o’rganishlari, o’qituvchi esa ularning o’quv faoliyatini boshqarishi lozim. Bu jarayonda o’qituvchi o’quvchilarni o’quv faoliyatiga yo’naltirishi, ularda mazkur faoliyatga nisbatan moyillikni hosil qilishi, ularning o’quv faoliyatini tashkil etishi, muvofiglashtirishi va maslahatlar berishi kerak. [4;4]

Kreativ yondashuv – bu insonga qiyin va murakkab vaziyatlarda yaxshi natijalarga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko’nikmadir. “Kreativ” va “kreativlik” tushunchalari – individning yangi g’oyalarni yaratishga qodirligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlik tarkibiga kiruvchi ijodkorlik qobilyati deb baholanadi.[1;90] Fikrimizcha, o’zbek adabiyotini o’qitishda o’quvchilarni kreativ va yangicha fikrlashga o’rgatish adabiyotga bo’lgan qiziqishini, dunyo qarashini yanada yuqoriga ko’tarilishga sabab bo’lishi mumkin. Bolani badiiy asarni o’qishga qiziqtrish uchun asar yuzasidan kreativ savol va topshiriqlar tuzish kerak, turli rasm va tasvirlar va asar matni, mazmuniga mos muommoli jumlalar tuzib, ular mustaqil yechim topishga undash darkor. Metodist olimalarimiz Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovaning ta’kidlashlaricha, ta’limga kreativ yondashuv asosida individni uning kreativ fikrlashini baholashga yo’naltirilgan xalqaro tadqiqot dasturi talablari darajasida rivojlantirishga, ta’lim siyosati va pedagogikasida ijobji o’zgarishlarga erishish mumkin. [1;90] Demak, ta’lim tizimida kreativ yondashuvdan foydalanish, o’quvchi qobiliyatlarini ochish va uni shakllantirishda muhim omil vazifasini o’taydi. Integrativ yondashuv – “integratsiya” so’zi lotincha so’z bo’lib, tiklash, to’ldirish, qismlarni bir butun qilib birlashtirish degan ma’noni anglatadi. Bu yondashuvda bir nechta fanlarni birlashtirib, maxsus kurslar yaratish, fanlarning turli qismlarini bitta umumiy qismga birlashtirish bir mavzuni bir necha predmetlar asosida o’rganish. Kognitiv yondashuv – bu tushunchaning

asosi lotincha "sognitio" so'zidan olingen bo'lib bilish, tushunish ma'nolarini ifodalaydi. Inglizcha "kognitiv" so'zi esa "o'rganilgan", ya'ni shaxsning bilimlarini o'zi mehnat qilib, o'zini ham aqlan, ham ruhan zo'riqtirib o'zlashtirish ko'nikma va malakalarni shakllantirishni anglatadi. Metodist olimlarimizning fikricha, o'quvchi faqat tinglash orqaligina emas, balki mustaqil o'qib-o'rganish natijasida o'zi uchun zarur bilimlarni izlab

topadi, maksimal darajada o'zlashtiradi va bu ta'limga kognitiv (bilish, o'zlashtirishga qaratilgan) yondashuv hisoblanadi [1;93].

**Xulosa** o'rnda shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida nomlari keltirilgan yondashuvlar o'zbek adabiyotini o'qitishimizda, o'quvchining ruhiyatini, uning qarashlarini va qiziqishlarini o'rganishimizda katta yordam beradi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova N. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022. 318-bet.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 106-bet.
3. Saфарова Р ва бошқалар. Умумий ўрта Таълим мактабларида модулли ўқитиш жараёнида педагогик технологиялар банкидан фойдаланиш механизmlари. – Тошкент: "Tafakkur qanoti", 2017. – 148 бет.

**Sanjar MAVLYANOV,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## O'ZBEK TILI DIPLOMATIK TERMINALARINING TAKOMILLASHUVI MASALALARI

**Annotatsiya:** maqolada o'zbek tili diplomatik terminlarining takomillashtirish masalalari tahlilga tortilgan. Maqolada diplomatiya terminlarining lug'atlarda berilishi masalalari va ularning talqinlarini tanqidiy ko'rib chiqilib, ularni takomillashtirish choralar hamda terminlarning shakllanishi, semantik maydoni, funksional jihatlar masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqoladan tilshunoslar, diplomatiya sohasida faoliyat yuritayotganlar va tadqiqotchilar foydalanshlari mumkin.

**Tayanch so'zlar:** *diplomatik termin, diplomatiya, lug'at, semantika, takomillashtirish, tartibga solish, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam.*

**Аннотация:** в статье анализируются вопросы совершенствования дипломатической терминологии узбекского языка. В статье критически рассматриваются вопросы терминообразования дипломатии в словарях и их толкования, особое внимание уделяется вопросам формирования терминов, семантического поля и функциональных аспектов. Статья может быть использована лингвистами, дипломатами и исследователями.

**Ключевые слова:** *дипломатический термин, дипломатия, лексика, семантика, совершенствование, регулирование, собственный слой, освоенный слой.*

**Annotation:** the article analyzes the issues of improving diplomatic terms of the Uzbek language. The article critically examines the issues of giving diplomacy terms in dictionaries and their interpretations, and pays special attention to the issues of terms' formation, semantic field, and functional aspects. The article can be used by linguists, diplomats and researchers.

**Key words:** *diplomatic term, diplomacy, vocabulary, semantics, improvement, regulation, own layer, mastered layer*

**Kirish.** Til bu hamisha o'zgarishdagi, o'sishdagi, yangilanishdagi hodisa bo'lib, jamiyat hayotidagi voqeliklar tilda aks etadi. Bu esa lug'atlarga ehtiyojni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Chunki lug'atlar jamiyatda qo'llanuvchi til birliklarini o'zida mujassamlashtirib turuvchi manba bo'lib, unda tilda mavjud birliklar aks etadi. Tilning taraqqiyotidagi o'zgarishlar, avvalo, lug'atlarda namoyon bo'ladi. Shuni qayd etish joizki, til rivojidagi o'zgarishlar uning leksik tarkibida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar leksik tarkibda namoyon bo'lar ekan, bu nafaqat tilning leksik boyishiga balki, miqdor, sifat jihatdan ham o'zgarishiga olib keladi.

Sababi shundaki, xalqning hayotida shakllangan muayyan leksema shu millat vakilining ma'lum sohada, yo'nalishda yangi ma'noni kashf etishi. Bu esa til imkoniyatini, shaxs nutqi boyligini oshirish uchun xizmat qiladi. Leksikadagi taraqqiyot uch tartibda voqelanadi: a) muayyan lug'aviy ma'nolarning qo'llanishdan chiqishi; b) so'zlarning yangi ma'no kasb etishi; d) leksema ma'nolarining torayishi yoki kengayishi. Bunday o'zgarishlar silsilasida lug'aviy birliklarning adabiy me'yorga bo'lgan munosabatida, qo'llanishi va boshqa xususiyatlarda turlichra o'zgarishlar yuz beradi. Bu jarayon kengayib, xalq dunyoqarashini aks ettirish bosqichiga kelganda ularni nazariy va amaliy